

UMURTQA POG'ONASI OSTEOXONDROZI BILAN OG'RIGAN BEMORLAR HAYOTINING IJTIMOIY JIHATLARI

Mamatkulov B.M., Umurzakova D.A.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Annotatsiya

Umurtqa pog'onasi osteoxondrozi rivojlanishiga biologik, psixologik va ijtimoiy omillar birligida ta'sir ko'rsatadi. Uning asosida yotgan degenerativ jarayonlar qarishning tabiiy qismi bo'lib, yosh o'tishi bilan kuchayib boradi. Keksalar sonining ortib borishi bilan ushbu muammo tobora dolzarblik kasb etmoqda. Maqsad. umurtqa pog'onasi osteoxondroz (UPO)ning rivojlanishi uchun xavf omillari sifatida kasalxonaga yotqizilgan bemorlarning hayotining ijtimoiy jihatlarini o'rganish. Matejal va metodlar. Tadqiqot 2023 yilda Toshkent shahrida o'tkazilgan bo'lib, ob'ekti sifatida Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining (RITOIAM) vertebrologiya bo'limi tanlandi. So'rovnoma shaxs (nazorat guruhi) ishtirok etdi. Natijalar. Tahlil natijalariga ko'ra, bemorlar ($51,4 \pm 0,8$ yosh) va sog'lom ishtirokchilar ($50,6 \pm 0,9$ yosh) o'rtaida yosh farqi sezilmagan, biroq ayollar ulushi har ikki guruhda ustun bo'lib ($p < 0,005$), bu kasallikning aynan ayollar orasida keng tarqalganligini ko'rsatadi. Moliyaviy qiyinchiliklarga uchraganlar asosiy guruhda $52,0 \pm 2,2\%$, nazorat guruhida esa $21,8 \pm 1,8\%$ ni tashkil etib ($p < 0,001$), osteoxondroz bilan kasallanganlar orasida iqtisodiy yuk ancha yuqoriligi aniqlangan. Xulosa. Natijalar ijtimoiy omillar va osteoxondroz xavfi o'rtaidiagi bog'liqlikni ko'rsatadi va kasallikning oldini olish va davolashda ijtimoiy jihatlarni hisobga olish muhimligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: umurtqa pog'onasi osteoxondrozi, ijtimoiy omillar, xavf omillari, profilaktika.

SOCIAL ASPECTS OF THE LIFE OF PATIENTS WITH OSTEOCHONDROSIS OF THE SPINE

Mamatkulov B.M., Umurzakova D.A.

Tashkent Medical Academy

Abstract

Introduction. The development of spinal osteochondrosis is influenced by a combination of biological, psychological, and social factors. The underlying degenerative processes are a natural part of aging and progress with increasing age. As the elderly population grows, this issue is becoming increasingly relevant.

Objective. To study the social aspects of the lives of hospitalized patients with spinal osteochondrosis (SO) as potential risk factors for disease development.

Materials and methods. The study was conducted in 2023 in Tashkent, with the vertebrology department of the Republican Scientific-Practical Medical Center of Traumatology and Orthopedics (RSPMCTO) serving as the study site. A total of 230 patients diagnosed with spinal osteochondrosis (main group) and 230 healthy individuals (control group) participated in the survey.

Results. The average age of patients and controls was 51.4 ± 0.8 and 50.6 ± 0.9 years, respectively, with no statistically significant difference. However, the proportion of women was significantly higher in both groups ($p < 0.005$), indicating a greater prevalence of the disease among females. Financial difficulties were reported by $52.0 \pm 2.2\%$ of the main group and $21.8 \pm 1.8\%$ of the control group ($p < 0.001$), reflecting a notably higher economic burden among those with osteochondrosis. Conclusion: The findings demonstrate a clear association between social factors and the risk of osteochondrosis, highlighting the importance of considering these aspects in prevention and treatment strategies.

Keywords: spinal osteochondrosis, social factors, risk factors, prevention.

СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЖИЗНИ ПАЦИЕНТОВ С ОСТЕОХОНДРОЗОМ ПОЗВОНОЧНИКА

Маматкулов Б.М., Умурзакова Д.А.

Ташкентская медицинская академия

Аннотация

Введение. На развитие остеохондроза позвоночника влияет совокупность биологических, психологических и социальных факторов. Лежащие в его основе дегенеративные процессы являются естественной частью старения и усиливаются с возрастом. С ростом числа пожилых людей эта проблема становится всё более актуальной. Цель: изучить социальные аспекты жизни пациентов, госпитализированных с остеохондрозом позвоночника (ОП), как потенциальные факторы риска развития заболевания. Материал и методы: Исследование проведено в 2023 году в городе Ташкент. Объектом стал вертебрологический отдел Республиканского научно-практического центра травматологии и ортопедии (РНПЦТО). В анкетировании приняли участие 230 пациентов с диагнозом остеохондроз позвоночника (основная группа) и 230 здоровых лиц (контрольная группа). Результаты: Средний возраст пациентов и контрольной группы составил $51,4 \pm 0,8$ и $50,6 \pm 0,9$ лет соответственно, различия статистически незначимы. Однако доля женщин в обеих группах была достоверно выше ($p < 0,005$), что указывает на широкую распространённость заболевания среди женского населения. Финансовые трудности испытывали $52,0 \pm 2,2\%$ участников основной группы и $21,8 \pm 1,8\%$ — контрольной ($p < 0,001$), что свидетельствует о значительно более высокой экономической нагрузке среди больных остеохондрозом.

Заключение: Полученные результаты подтверждают наличие связи между социальными факторами и риском развития остеохондроза, подчёркивая необходимость учёта этих аспектов при профилактике и лечении заболевания.

Ключевые слова: остеохондроз позвоночника, социальные факторы, факторы риска, профилактика.

Kirish. Mehnatga layoqatli yoshdag'i erkaklarda ham, ayollarda ham vaqtinchalik nogironlikning asosiy sabablaridan biri umurtqa pog'onasining degenerativ kasallikkari (UPDK)dir [1, 2]. Umurtqa pog'onasasi osteoxondrozi rivojlanishiga ko'p omillar xususan, biologik, psixologik va ijtimoiy omillar ta'sir qiladi [3]. Umurtqa pog'onasasi degeneratsiyasi qarishning tabiiy jarayoni bo'lib, yosh o'tgan sari rivojlanib boradi [4, 5]. Keksa odamlar sonining ko'payishi bilan bu muammo tobora dolzARB bo'lib bormoqda [6]. O'rtacha umr ko'rish davomiyligi va aholining o'rtacha yoshi ortib borayotganligi sababli, UPDKni o'rganish va yangi davo choralarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega [7].

Yosh kattalashgan sari umurtqa pog'onasi osteoxondroz (UPO)dan aziyat chekish extimoli ortib boradi. Bu aloqadorlik tabiiy qarish jarayoni keltirib chiqaruvchi o'zgarishlar bilan tushuntirish mumkin. Bu o'zgarishlarga misol qilib egiluvhchanlikni kamayishi, tayanch harakatlanish tizimining degenerative jarayonlarining ortishi kabilarni keltirish mumkin [8]. Turli jins vakillarida ushbu nozologiya bilan bog'liq bo'lgan tarqalish xususiyatlari va omillarini bilish, ushbu kasallikkni yaxshiroq o'rganishda yangi farazlarning paydo bo'lishiga yordam beradi.

Bel og'rig'i uchrashi, tarqalish darajasi va davolanish natijalariga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy, jumladan ko'rsatiladigan tibbiy hizmat ommabopligi, ta'lim va bandlik holati kabi omillar ham mavjud. Bundan tashqari, parhez, jismoniy mashqlar va uyqu rejimi upo rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar UPO rivojlanishi va tarqalishi o'rtasidagi murakkab va o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi, samarali davolash va oldini olish strategiyalari hisobga olgan holda yondashuv kerakligini ko'rsatadi. Biroq, bu munosabatlarga yosh, jins va hissiy kasalliklar kabi ko'plab boshqa omillar ham ta'sir qiladi [9,10]. Bu omillar UPO tarqalishi va uni boshqarishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan murakkab o'zaro bog'liqlik borligini ko'rsatadi. Yosh muhim omil hisoblanib, yosh kattalashishi bilan bel og'rig'i rivojlanish ehtimoli ortadi va mushak-skelet tizimining barqarorligi pasayadi. Jins ham muhim rol o'ynaydi: ayollar, ayniqsa postmenopozal yoshdag'i ayollar,


to'qimalar tarkibiga va suyak zichligiga ta'sir qiluvchi gormonal o'zgarishlar tufayli semirib ketish xavfi yuqori bo'lishi mumkin, bu degenerativ o'zgarishlarga va keyinchalik bel og'rig'iga olib keladi [11-15].

Tadqiqotning maqsadi – umurtqa pog'onasi osteoxondroz (UPO)ning rivojlanishi uchun xavf omillari sifatida kasalxonaga yotqizilgan bemorlarning hayotining ijtimoiy jihatlarini o'rganish.

Materiallar va usullar. Materiallar. Tadqiqot Toshkent shahrida 2023 yilda o'tkazildi. Tadqiqot ob'ekti: RITOIATM (Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy amaliy tibbiyat markazi)ning vertebrologiya bo'limi. RITOIATM da UPO bilan gospitalizatsiya qilingan jami 230 nafar bemor so'rovnomada qatnashdi (asosiy guruh), ikkinchi guruh esa 230 nafar sog'lom odamlar (nazorat guruhidan) iborat. Barcha respondentlardan tadqiqotga qatnashishga rozilik olindi.

Usullar. Tadqiqot usuli xodisa-nazorat. Ma'lumotlarni tahlilqilish uchun so'rovnama usuli qo'llanildi. Olingan natijalarni hisoblash uchun guruh ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqlarni baholash maqsadida imkoniyatlar nisbati hisoblandi. Natijalarning ishonchlilagini baholash uchun moslik mezoni (χ^2) va Student t-testidan foydalanildi va $p<0,05$ ishonchli deb topildi.

Natijalar. O'tkazilgan ijtimoiy tadqiqotlar natijasida o'rganilayotgan guruhlar tarkibida ayollar sezilarli ustunlik qilgani aniqlandi (asosiy va nazorat guruhlarida mos ravishda 68,7% va 66,2%). Respondentlarning o'rtacha yoshi asosiy guruhda $51,4\pm0,8$ yoshni, nazorat guruhida esa $50,6\pm0,9$ yoshni tashkil etdi. Yosh taqsimoti bo'yicha guruhlar statistik jihatdan farq qilmadi ($p<0,05$) (1-rasm).



Rasm 1. Respondentlarning asosiy va nazorat guruhlarida jinsga qarab taqsimlanishi (%).


Tadqiqot guruhlarida respondentlarning asosiy qismini o'zbek millati vakillari tashkil etdi (mos ravishda $95,6\pm1,0\%$ va $92,8\pm1,2\%$). Qolganlari qoraqalpoq, rus, qirg'iz, tojik va boshqa millat vakillaridan iborat.

Respondentlarning ta'lim darajasi ma'lumotlarini tahlil qilganimizda, asosiy guruhida nazorat guruhiga qaraganda oliy ma'lumotilar ko'proqligi (mos ravishda $59,7\pm2,2\%$ va $53,2\pm2,2\%$, $p<0,01$), o'rta ma'lumotilar esa aksincha kamroqligi ($25,9\pm1,9\%$ va $34,0\pm6\%$, $p<0,01$) qayd etildi. Asosiy guruhdagi oliy ma'lumotli respondentlarning yuqori ulushini kamharakat turmush tarzi va yetarlicha jismoniy faoliyat bilan shug'ullanmasligi bilan izohlash mumkin.


Oilaviy holat tahlil qilinganda, asosiy va nazorat guruhlarida oilalilar mos ravishda $92,2\pm1,3\%$ va $92,6\pm1,3\%$ ni tashkil etdi. Asosiy va nazorat guruhlarida turmush qurmaganlar

$6,2 \pm 1,1\%$ va $5,3 \pm 1,0\%$, ajrashganlar yoki bevalar $1,6 \pm 0,8\%$ va $2,1 \pm 0,7\%$ ulush egalladi. Taqqoslangan guruhlarda ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha asosiy va nazorat guruhlari o'rtasida statistik jihatdan muhim farq topilmadi.

Oilaning mustahkamligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan muhim omil - bu oilada bolalarning mavjudligi va ularning soni. Bizning natijalarimizda, respondentlarning asosiy guruhida nazorat guruhiga qaraganda 2, 3 yoki undan ortiq 4 nafar bola statistik jihatdan sezilarli darajada ko'p. Nazorat guruhidagi respondentlar orasida bolasiz odamlarning ulushi asosiy guruhga qaraganda sezilarli darajada yuqori ($p < 0,05$) (2-rasm).



Rasm 2. Respondentlarda farzandlar soni bo'yicha taxlili.



Rasm 3. Respondentlar orasida davolanish bilan bog'liq muammolarga duch kelganlarning ulushi (%).

Bundan tashqari so'rovnoramizda respondentlarning moliyaviy ahvolini qanday baholagini haqidagi savollarni ham o'z ichiga olgan bo'lib, uni ham tahlil qildik. Bu savolga asosiy guruhdagi respondentlarning $36,8 \pm 2,1$ foizi, nazorat guruhidagilarning $63,8 \pm 2,0$ foizi yetarli

darajada ta'minlangan, deb javob berdi. Nazorat guruhida yetaricha ta'minlanganligini bildirganlarning nisbati asosiy guruhga qaraganda 1,7 baravar yuqori ($p<0,001$). Buni UPO yoki uning asoratlari bilan og'rigan bemorlarning ish bilan ta'minlash imkoniyatlari cheklanganligi sababli daromadlari kamayishi, badavlat odamlar esa umurtqa pog'onasi salomatligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadigan faol turmush tarzi, shu jumladan sport yoki jismoniy faoliylik bilan shug'ullanishi bilan izohlanadi. Ikkala guruhdagi respondentlar orasida o'zini muhtoj deb ataganlar uchramadi.

Respondentlarning kasallanganda davolanish imkoniyatlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, asosiy guruhdagi respondentlarning $52\pm2,2\%$ va nazorat guruhidagi respondentlarning $78,2\pm1,8\%$ moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelmayotganligini bildirgan ($p<0,001$) (3-rasm).

Xulosa. Umurtqa pog'onasi osteoxondrozi bilan og'rigan bemorlar va sog'lom ishtirokchilarning o'rtacha yoshi mos ravishda $51,4\pm0,8$ va $50,6\pm0,9$ yoshni tashkil etdi, bu guruhrilar o'rtasida yoshda sezilarli farqlar yo'qligini ko'rsatadi. Ikkala guruhning strukturasida ayollarning sezilarli darajada ustunligi ($p<0,005$) mavjud bo'lib, bu ayollar auditoriyasi orasida kasallikning yuqori tarqalishidan dalolat beradi. Umurtqa pog'onasi osteoxondrozi bilan og'rigan respondentlarning asosiy guruhida oliy ma'lumot darjasini nazorat guruhiga qaraganda yuqori bo'lgan, bu kasallikning rivojlanishiga ta'lif darjasini, shuningdek, ularning faoliyati ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Oilaviy holat umurtqa pog'onasi osteoxondrozi rivojlanishida statistik ahamiyatga ega xavf omili deb topilmadi, lekin oiladagi bolalar soni sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Asosiy guruhda 2, 3 va 4 dan ortiq bolali respondentlar nazorat guruhiga qaraganda ancha ko'pligi ($p<0,05$) aniqlandi. Nazorat guruhida moliyaviy xolatini yetarli darajada ta'minlangan deb hisoblagan respondentlar 1,7 marta ko'proq topilgan ($p<0,001$). Asosiy guruhdagi respondentlarning $52\pm2,2\%$ va nazorat guruhidagi ishtirokchilarning $78,2\pm1,8\%$ moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelmaganliklarini ma'lum qilishdi. Bu esa Umurtqa pog'onasi osteoxondrozi bilan og'rigan bemorlarda moliyaviy muammolarning yuqori chastotasini ko'rsatadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Modic, M. T. (1999). DEGENERATIVE DISC DISEASE AND BACK PAIN. Magnetic Resonance Imaging Clinics of North America, 7(3), 481–491. [https://doi.org/10.1016/s1064-9689\(21\)00570-5](https://doi.org/10.1016/s1064-9689(21)00570-5)
2. Cheung, K. M. C., Karppinen, J., Chan, D., Ho, D. W. H., Song, Y., Sham, P., Cheah, K. S. E., Leong, J. C. Y., & Luk, K. D. K. (2009). Prevalence and pattern of lumbar magnetic resonance imaging changes in a population study of one Thousand Forty-Three individuals. Spine, 34(9), 934–940. <https://doi.org/10.1097/brs.0b013e3181a01b3f>
3. Waddell, G. (1992). Biopsychosocial analysis of low back pain. Baillière S Clinical Rheumatology, 6(3), 523–557. [https://doi.org/10.1016/s0950-3579\(05\)80126-8](https://doi.org/10.1016/s0950-3579(05)80126-8)
4. Colombini A, Lombardi G, Corsi MM, Banfi G. Pathophysiology of the human intervertebral disc. Int J Biochem Cell Biol. 2008; 40(5): 837-842 <https://clinicalpub.com/degenerative-disorders-of-the-spine>
5. Kos, N., Gradisnik, L., & Velnar, T. (2019b). A brief review of the degenerative intervertebral disc disease. Medical Archives, 73(6), 421. <https://doi.org/10.5455/medarh.2019.73.421-424>
6. Boxberger, J. I., Orlansky, A. S., Sen, S., & Elliott, D. M. (2009). Reduced nucleus pulposus glycosaminoglycan content alters intervertebral disc dynamic viscoelastic mechanics. Journal of Biomechanics, 42(12), 1941–1946. <https://doi.org/10.1016/j.jbiomech.2009.05.008>

7. Vespa J, Medina L, Armstrong DM, Demographic Turning Points for the United States: Population Projections for 2020 to 2060, Suitland-Silver Hill, MD: U.S. Census Bureau; 2018.
8. Shelby, T., Mills, E. S., Ton, A., Wang, J. C., Hah, R. J., Qureshi, S. A., & Alluri, R. K. (2023). The role of sex hormones in degenerative disc disease. *Global Spine Journal*, 13(7), 2096–2099. <https://doi.org/10.1177/21925682231152826>
9. Knezevic, N. N., Candido, K. D., Vlaeyen, J. W. S., Van Zundert, J., & Cohen, S. P. (2021). Low back pain. *The Lancet*, 398(10294), 78–92. [https://doi.org/10.1016/s0140-6736\(21\)00733-9](https://doi.org/10.1016/s0140-6736(21)00733-9)
10. Chou, L., Brady, S. R., Urquhart, D. M., Teichtahl, A. J., Cicuttini, F. M., Pasco, J. A., Brennan-Olsen, S. L., & Wluka, A. E. (2016). The association between obesity and low back pain and disability is affected by mood disorders. *Medicine*, 95(15),e3367. <https://doi.org/10.1097/md.0000000000003367>
11. Mamatkulov B. M. et al. THE ROLE OF SOCIAL AND HYGIENIC FACTORS IN HOSPITALIZED PATIENTS IN THE DEVELOPMENT OF OSTEOCHONDROSIS OF THE SPINE //SHOKH LIBRARY. – 2025.
12. Умурзакова Д.А, Г.К. Толипова, И.Р. Уразалиева// Ecological and parasitological assessment of drinking water quality of centralized water supply facilities// EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY, №1 p- 109.
13. Г.К. Толипова, Д.А Умурзакова, И.Р. Уразалиева/ The prevalence of iodine deficiency disorders in children of the Republic of Uzbekistan// International scientific review// pages- 98-99
14. Маматкулов Б.М., Умурзакова Д.А. Some Aspects of the Development of Osteochondrosis of the Spine// International Journal of Health Systems and Medical Sciences/ Volume 2 | No 4 | April -2023 p-15-20